



PREZIDENT TA'LIM
MUASSASALARI
AGENTLIGI

KUTUBXONADA

ISH YURITISH

Amaliy qo'llanma



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENT TA'LIM MUASSASALARI AGENTLIGI

KUTUBXONADA ISH YURITISH

Amaliy qo'llanma

Toshkent – 2022

UO'K 37.013(07) Z 31
KBK 74.00ya7

O'zbekiston Respublikasi
Prezident ta'lif muassasalari agentligi
direktori **Hilola Umarova** tahriri ostida

Tuzuvchi:

Sulaymon Nazarov – Prezident ta'lif muassasalari agentligi
Darsliklarni ishlab chiqishni muvofiqlashtirish bo'limi boshlig'i

Kutubxonada ish yuritish: Amaliy qo'llanma

S.Nazarov – Toshkent: 2022.

Mas'ul muharrir:
Yorqinjon Odilov,
Filologiya fanlari doktori, professor

Ushbu qo'llanmada O'zbekiston Respublikasi Prezident ta'lif muassasalari agentligi tizimidagi ta'lif muassasalari kutubxonachilarining ish yuritish faoliyatida eng ko'p qo'llaniladigan me'yoriy hujjatlar, ish rejalar tuzish, o'quvchilarini darsliklar va badiiy adabiyotlar bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatmalar hamda daftarlarni yuritish, kutubxonani xatlovdan o'tkazish va hisobot shakllarining tartib qoidalariga to'xtalib o'tilgan. Ro'yxatga olish kitoblari va hisobot jadvallariga doir namunalar berilgan bo'lib, mazkur qo'llanmadan kutubxonalarda foydalanish mumkin.

*O'zbekiston Respublikasi Prezident ta'lif muassasalari agentligi huzuridagi
Ilmiy-metodik Kengashning 2022-yil apreldagi qarori bilan kutubxonalarda
foydalanishga tavsiya etilgan.*



Dunyoda har qaysi davlat, har qaysi xalq, birinchi navbatda o'zining intellektual salohiyati, yuksak ma'naviyati bilan qudratlidir. Bunday yengilmas kuch manbai esa, avvalo, insoniyat tafakkurining buyuk kashfiyoti - kitob va kutubxonalarda.

Shavkat MIRZIYOYEV
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti


KIRISH

Yaxshi kitobni chiroyli kutubxonada o'qish — bu, albatta, ideal uyg'unlikdir. Tarixga nazar solsak, ilk kutubxonalar taxminan eramizdan 2600-yillar avval paydo bo'lgan ekan. Ammo afsuski, u davrda ma'lumotlarning barchasini saqlab qoluvchi arxivlar mavjud bo'lmagan va bizgacha ular yetib kelmagan.

Raqamli davrda kutubxonalar o'zlarining mavjud falsafasini rivojlantirishlari, yosh kitobxonlarning manfaatlarini ta'minlash, xizmat ko'rsatish va yangi ehtiyojlarga mos keladigan fondlarni yaratish sohasidagi o'ziga xosligini ta'kidlash kerak.

Agentlik tizimidagi ta'llim muassasalarining zamonaviy kutubxonalari shu qadar qulay, o'ziga xos tarzda bунyод etilganki, kitobxonlar ularni ko'rib ko'zi quvnaydi. Xo'sh, zamonaviy kutubxonalar nimasi bilan ajralib turadi? Ularning joylashuvi, zamonaviy tarzda jihozlanishi va noodatiy dizaynidan tortib, kitoblarning turli shakllarda chop etilganigacha e'tiborni tortmay qolmaydi.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev mamlakatimizda yoshlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, ularning bilim olishi, mehnat qilishi, bilim va qobiliyatini ro'yobga chiqarishi uchun zarur sharoitlarni yaratish masalalariga jiddiy e'tibor qaratmoqda. Bu bejiz emas. Chunki, "Yangi O'zbekistonni bунyod etish jarayonida yoshlar – xalqimizning asosiy tayanchi va suyanchi. Keng ko'lamli islohotlarimizni samarali amalga oshirishda ular hal qiluvchi kuch bo'lib maydonga chiqmoqda. Aynan zamonaviy bilim olgan, ilg'or kasb-hunarlarini, innovatsion texnologiyalarni, xorijiy tillarni puxta egallagan o'g'il-qizlarimiz mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishda yetakchi o'rinn tutadi". [1]



Hilola Umarova

Prezident ta'llim muassasalari
Agentligi direktori

Hozirgi vaqtida yurtimizda "Yangi O'zbekiston mакtab ostonasidan boshlanadi" degan g'oya asosida maktab ta'llimi tizimida ham katta o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Toshkent shahrida va hududlarimizda Prezident mакtablari, ijod va ixtisoslashgan mакtablar soni ko'payib bormoqda. [2]

Mamlakatimiz rahbarining kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini yaxshilash to'g'risida kuyunib gapirayotganliklarida o'ziga xos chuqr falsafa bor. Eng avvalo, kitob insonni yerdan ko'kka ko'taruvchi, uning ma'naviy quvvatini oshiruvchi buyuk, mo'jizakor kuchdir. Qolaversa, kitob insoniyatning tarixiy xotirasi, o'z ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy zaminini mustahkamlovchi, kelajakni yorqin ko'rsatib berishga qodir mash'ala hisoblanadi.

Zero, kitob irodani toblaydi, boshqaruв mahoratini oshiradi. Bugungi tezkor va zamonaviy sharoitda intellektual salohiyati yuksak kadrlarni tayyorlashda yoshlarning kitobga munosabatini yanada yaxshilash, jamiyatimiz uchun yetuk kadrlar tayyorlanadigan ta'llim maskanlarida mavjud kutubxonalar fondini eng yangi badiiy, ilmiy, sohaga doir, jumladan, davlat tilidagi kitoblar bilan muntazam ravishda boyitib borish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Maktab kutubxonasi kitobxonlarga, shuningdek, intellektual va axborot savodxonligini oshirish uchun bir qator ta'lim imkoniyatlarini taqdim etishga xizmat qilishi lozim. Maktab kutubxonasi o'quvchilarning mustaqil ishlarni bajarishlari, kompyuterlardan foydalanishlari, internetga kirishlari, tadqiqot materiallaridan foydalanishlari uchun o'quv maydoni bo'lib xizmat qilishi kerak.

Maktab kutubxonalari barcha mavjud ma'lumotlar uchun markaziy joy vazifasini bajaradi, maktab kutubxonachisi esa kutubxonada topilgan resurslar va materiallarning adabiy xaritasi vazifasini bajaradi.

Maktab kutubxonasida o'quvchi va o'qituvchilar turli manbalardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Kutubxona binolari ko'pincha o'qish uchun sokin, qulay joylashuv va albatta ozoda bo'lishi lozim.

Maktab kutubxonasi barcha turdag'i ommaviy axborot vositalaridan foydalana olishi hamda avtomatlashtirilgan va ma'lumot toplash uchun doimiy Internetga ulangan bo'lishi, maktabda foydalaniladigan barcha materiallar uchun markaz va muvofiqlashtiruvchi vazifasini bajarishi lozim.

E'tiboringizga havola qilinayotgan ushbu qo'llanmada so'nggi yillarda yangidan barpo etilgan Prezident makteblari, ijod va ixtisoslashgan makteblari kutubxonasida ish yuritish va kutubxona faoliyatini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Manba:

[1] Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. – T., O'qituvchi, 2021 B.51.

[2] Qarang: O'sha yerda. B. 53.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING AXBOROT-KUTUBXONA FAOLIYATI TO'G'RISIDA QONUNI



**O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik Palatasi
tomonidan 2011-yil 4-martda qabul qilingan.
Senat tomonidan 2011-yil 25-martda ma'qullangan.**

1-bob. Umumiy qoidalar

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi axborot-kutubxona faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

2-modda. Axborot-kutubxona faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlari

Axborot-kutubxona faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining axborot-kutubxona faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

axborot-kutubxona resursi — moddiy obyektda matn, ovozli yozuv yoki tasvir tarzida qayd etilgan hamda identifikatsiyalash, saqlash va foydalanishni ta'minlash uchun rekvizitlarga ega bo'lgan axborot;

axborot-kutubxona faoliyati — axborot-kutubxona muassasalarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida axborot-kutubxona fondlarini shakllantirish va axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni tashkil etish bo'yicha faoliyati;

axborot-kutubxona fondi — tizimlashtirilgan axborot-kutubxona resurslarining majmui;

axborot-kutubxona xizmati ko'rsatish — foydalanuvchilarning axborot-kutubxona resurslaridan foydalanishini ta'minlash;

yig'ma elektron katalog — axborot-kutubxona muassasalarining elektron kataloglari majmui;

foydanuvchi — axborot-kutubxona xizmati ko'rsatilishi uchun axborot-kutubxona muassasasida ro'yxatga olingan shaxs;

elektron katalog — tizimlashtirilgan axborot-kutubxona resurslari ro'yxatining elektron shakli;

elektron kutubxona — axborot-kutubxona fondining elektron shakli.

4-modda. Axborot-kutubxona faoliyatining asosiy vazifalari

Axborot-kutubxona faoliyatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- foydalanuvchilarning axborot-kutubxona resurslaridan foydalanishini ta'minlash;
- foydalanuvchilarning intellektual, ma'naviy-axloqiy, madaniy va ta'lim olish ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- milliy madaniyatni tiklashga va yanada rivojlantirishga ko'maklashish, O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini saqlash;
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida axborot-kutubxona resurslaridan o'zaro foydalanishni ta'minlash.

2-bob. Axborot-kutubxona faoliyati sohasining davlat tomonidan tartibga solinishi

5-modda. Axborot-kutubxona faoliyati sohasidagi davlat boshqaruvi

Axborot-kutubxona faoliyati sohasidagi davlat boshqaruvi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va u axborot-kutubxona faoliyati sohasida maxsus vakolat bergen davlat organi (bundan buyon matnda maxsus vakolatli davlat organi deb yuritiladi) tomonidan amalga oshiriladi.

6-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining axborot-kutubxona faoliyati sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

- axborot-kutubxona faoliyati sohasidagi davlat siyosatining amalga oshirilishini ta'minlaydi;
- axborot-kutubxona faoliyati sohasidagi davlat dasturlarini tasdiqlaydi;
- axborot-kutubxona faoliyati sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qiladi;
- axborot-kutubxona muassasalarini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

7-modda. Maxsus vakolatli davlat organi

Maxsus vakolatli davlat organi:

- axborot-kutubxona faoliyati sohasidagi davlat siyosatining amalga oshirilishida ishtirok etadi;
- axborot-kutubxona faoliyati sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;
- axborot-kutubxona muassasalarini faoliyatini muvofiqlashtiradi;
- axborot-kutubxona faoliyati sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar va normativ hujjatlarni ishlab chiqadi hamda qabul qiladi;
- axborot-kutubxona resurslarini noyob va alohida qimmatli axborot-kutubxona resurslari sirasiga kiritish tartibini, shuningdek ularni saqlash va ulardan foydalanish tartibini belgilaydi;

axborot-kutubxona faoliyati sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etadi;
axborot-kutubxona muassasalarining hisobini yuritadi;
yig'ma elektron katalogni shakllantirish va yuritish tartibini tasdiqlaydi.

Maxsus vakolatli davlat organi qonun hujjalariiga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

8-modda. Axborot-kutubxona muassasalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash

Axborot-kutubxona muassasalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash:
ularning moliyaviy va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash;
axborot-kutubxona faoliyatini rivojlantirishga investitsiyalar jalb etish;
axborot-kutubxona faoliyatini amalga oshirishda soliq imtiyozlari va boshqa imtiyozlarni belgilash orqali amalga oshiriladi.

3-bob. Axborot-kutubxona tizimi

9-modda. Axborot-kutubxona tizimi hamda axborot-kutubxona muassasalarining turlari

Axborot-kutubxona tizimi yagona tashkiliy va uslubiy ta'minot asosida faoliyat ko'rsatuvchi axborot-kutubxona muassasalari majmuidir.

Axborot-kutubxona muassasasi mustaqil muassasa bo'lishi yoxud korxona, muassasa yoki tashkilotning tarkibiy bo'linmasi bo'lishi mumkin.

Axborot-kutubxona muassasalariga quyidagilar kiradi:

O'zbekiston Milliy kutubxonasi;
axborot-kutubxona markazlari;
axborot-resurs markazlari;
davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining kutubxonalari;
boshqa kutubxonalar (fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining, tijorat tashkilotlarining kutubxonalari).

Axborot-kutubxona muassasalari axborot-kutubxona fondlarining mazmuni va belgilangan maqsadiga ko'ra universal hamda maxsus axborot-kutubxona muassasalariga bo'linadi.

Universal axborot-kutubxona muassasalari axborot-kutubxona fondlarini bilimning turli sohalari bo'yicha shakllantiradi va turli toifadagi foydalanuvchilarning axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qanoatlantiradi.

Maxsus axborot-kutubxona muassasalari axborot-kutubxona fondlarini bilimning bir yoki bir necha turdosh sohalari bo'yicha shakllantiradi va ayrim toifadagi foydalanuvchilarning axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qanoatlantiradi.

10-modda. O'zbekiston Milliy kutubxonasi

O'zbekiston Milliy kutubxonasi milliy va jahon madaniyatini, fani va ta'lими rivojlantirish manfaatlarini ko'zlagan holda O'zbekiston Respublikasida axborot-kutubxona faoliyatini tashkil etuvchi hamda amalga oshiruvchi umumdavlat universal axborot-kutubxona muassasasidir.

O'zbekiston Milliy kutubxonasi:

axborot-kutubxona faoliyati sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi;

axborot-kutubxona fondini shakllantiradi, uning but saqlanishini ta'minlaydi hamda foydalanuvchilarga milliy va xorijiy nashrlarning eng to'liq to'plamini taqdim etadi;

O'zbekiston Respublikasida chiqariladigan nashrlarning majburiy nusxasini, shuningdek dissertatsiyalarning ko'chirma nusxasini oladi;

O'zbekiston Respublikasida chiqariladigan nashrlarning davlat bibliografik hisobini yuritadi;

elektron kutubxona va elektron katalogni shakllantiradi;

kutubxonashunoslik, bibliografiyashunoslik va kitobshunoslik sohasida ilmiy-tadqiqot hamda ilmiy-uslubiy faoliyatni amalga oshiradi va muvofiqlashtiradi;

noyob va alohida qimmatli axborot-kutubxona resurslarini but saqlash, konservatsiyalash va restavratsiya qilish bo'yicha ishlarni amalga oshiradi;

yig'ma elektron katalogni shakllantiradi va yuritadi;

axborot-kutubxona resurslaridan o'zaro foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratadi;

boshqa axborot-kutubxona muassasalari bilan hamkorlikni amalga oshiradi.

O'zbekiston Milliy kutubxonasi qonun hujjaliga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

O'zbekiston Milliy kutubxonasing axborot-kutubxona fondi davlat mulkidir.

O'zbekiston Milliy kutubxonasi to'g'risidagi nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

11-modda. Axborot-kutubxona markazlari

Axborot-kutubxona markazlari Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida axborot-kutubxona faoliyatini tashkil etuvchi hamda amalga oshiruvchi universal axborot-kutubxona muassasalaridir.

Axborot-kutubxona markazlari:

axborot-kutubxona fondini shakllantiradi va uning but saqlanishini ta'minlaydi;

elektron kutubxona va elektron katalogni shakllantiradi;

tegishli hududda chiqariladigan nashrlarning majburiy nusxasini oladi;

bibliografik, ilmiy-uslubiy va madaniy-ma'rifiy ishlarni bajaradi;

tegishli hududda axborot-kutubxona muassasalari faoliyatini muvofiqlashtiradi va ularni tashkiliy-uslubiy jihatdan ta'minlashni amalga oshiradi;

yig'ma elektron katalogni shakllantirishda ishtirok etadi;

axborot-kutubxona resurslaridan o'zaro foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratadi;

boshqa axborot-kutubxona muassasalari bilan hamkorlikni amalga oshiradi;

tegishli hududda axborot-kutubxona muassasalarining depozitar saqlanadigan axborot-kutubxona resurslarini to'plashni amalga oshiradi va ularning hisobini yuritadi.

Axborot-kutubxona markazlari qonun hujjaliga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Axborot-kutubxona markazlarining axborot-kutubxona fondi davlat mulkidir.

Axborot-kutubxona markazi to'g'risidagi namunaviy nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

12-modda. Axborot-resurs markazlari

Axborot-resurs markazlari davlat ta'lif muassasalari huzurida tashkil etilgan, o'quvchi yoshlarning, shuningdek aholining axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan axborot-kutubxona faoliyatini amalga oshiruvchi universal axborot-kutubxona muassasalaridir.

Axborot-resurs markazlari:

ta'lif muassasasining ixtisoslashuviga muvofiq asosan ilmiy-ta'limga oid mazmundagi axborot-kutubxona fondini shakllantiradi va uning but saqlanishini ta'minlaydi;
elektron kutubxona va elektron katalogni shakllantiradi;
shaxsning ma'nnaviy boy va barkamol ijodiy o'sishi uchun imkoniyatlar yaratgan holda o'zidagi va o'zidan uzoqdagi axborot-kutubxona resurslaridan foydalanish asosida O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'nnaviy va madaniy merosidan foydalanuvchilarni bahramand etadi;
axborot-kutubxona resurslaridan o'zaro foydalanishni ta'minlaydi;
boshqa axborot-kutubxona muassasalari bilan hamkorlikni amalga oshiradi;
yig'ma elektron katalogni shakllantirishda ishtirok etadi;
madaniy, ta'lif, axborot dasturlari va loyihamonlari hamda boshqa dasturlar va loyihamonlari birgalikda amalga oshirish uchun ta'lif, ilmiy muassasalar va arxivlar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, milliy madaniyat markazlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantiradi.

Axborot-resurs markazlarining axborot-kutubxona fondi davlat mulkidir.

Axborot-resurs markazi to'g'risidagi namunaviy nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

13-modda. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining kutubxonalarini

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining kutubxonalarini qonun hujjalarda belgilanadigan tartibda axborot-kutubxona faoliyatini amalga oshiruvchi maxsus axborot-kutubxona muassasalaridir.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining kutubxonalarini:

axborot-kutubxona fondini shakllantiradi va uning but saqlanishini ta'minlaydi;
elektron kutubxona va elektron katalogni shakllantiradi;
axborot-kutubxona resurslaridan o'zaro foydalanishni ta'minlaydi;
boshqa axborot-kutubxona muassasalari bilan hamkorlikni amalga oshiradi;
yig'ma elektron katalogni shakllantirishda ishtirok etadi.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari kutubxonalarining axborot-kutubxona fondi davlat mulkidir.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining kutubxonalarini to'g'risidagi nizomlar ushbu organlarning rahbarlari tomonidan tasdiqlanadi.

14-modda. Boshqa kutubxonalar

Boshqa kutubxonalar o'z muassisulari tomonidan belgilanadigan tartibda axborot-kutubxona faoliyatini amalga oshiruvchi universal yoki maxsus axborot-kutubxona muassasalaridir.

Boshqa kutubxonalar:

axborot-kutubxona fondini shakllantiradi va uning but saqlanishini ta'minlaydi;
elektron kutubxona va elektron katalogni shakllantiradi;
axborot-kutubxona resurslaridan o'zaro foydalanishni ta'minlaydi;
boshqa axborot-kutubxona muassasalari bilan hamkorlikni amalgga oshiradi;
yig'ma elektron katalogni shakllantirishda ishtirok etadi.

Boshqa kutubxonalarning axborot-kutubxona fondi ularning muassisleri mulkidir.

Boshqa kutubxonalar to'g'risidagi nizomlar ularning muassisleri tomonidan tasdiqlanadi.

15-modda. Axborot-kutubxona muassasalarini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish

Axborot-kutubxona muassasalarini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalgga oshiriladi.

4-bob. Axborot-kutubxona fondi

16-modda. Axborot-kutubxona fondini shakllantirish

Axborot-kutubxona fondini shakllantirish axborot-kutubxona muassasasining maqsadlari va vazifalariga muvofiq uni jamlash, hisobga olish, ishlovdan o'tkazish, joylashtirish va saqlash orqali amalgga oshiriladi.

17-modda. Axborot-kutubxona fondini jamlash

Axborot-kutubxona fondi nashrlarni va boshqa axborot-kutubxona resurslarini sotib olish, ularga obuna bo'lish, ularni ayrboshlash, tekinga olish, shu jumladan hadyaga olish hisobiga jamlanadi.

18-modda. Axborot-kutubxona fondini hisobga olish, ishlovdan o'tkazish, joylashtirish, saqlash va undan foydalanish

Axborot-kutubxona fondini hisobga olish, ishlovdan o'tkazish, joylashtirish, saqlash va undan foydalanish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalgga oshiriladi.

Axborot-kutubxona fondining nashrlar majburiy nusxasini olish hisobiga jamlanadigan, shuningdek noyob va alohida qimmatli axborot-kutubxona resurslarini o'z ichiga olgan qismi milliy madaniy boylik bo'lib, moddiy madaniy meros obyekti sifatida saqlanadi.

Axborot-kutubxona muassasalarining moddiy-texnika ta'minoti yomonlashuviga, ularni mehnatni muhofaza qilish talablariga, axborot-kutubxona fondlarini saqlash normalari va shart-sharoitlariga mos kelmaydigan binolarga ko'chirishga yo'l qo'yilmaydi.

5-bob. Foydalanuvchilarining huquq va majburiyatları

19-modda. Foydalanuvchilarining huquqlari

Foydalanuvchilar quyidagi huquqlarga ega:

axborot-kutubxona muassasalariga kirish va axborot-kutubxona resurslaridan foydalanish;
o'z ehtiyojlariga mos tarzda axborotni erkin tanlab olish;
ko'rsatiladigan xizmatlarning, shu jumladan pulli xizmatlarning ro'yxati hamda ularni ko'rsatish shartlari haqida axborot olish;

so'ralayotgan axborot-kutubxona resurslarining mavjudligi haqida axborot olish.

Foydalanuvchilar qonun hujjalariiga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

20-modda. Foydalanuvchilarning majburiyatları

Foydalanuvchilar:

axborot-kutubxona muassasalarida foydalanish qoidalariiga rioya etishi;

axborot-kutubxona resurslariga ehtiyojkorlik bilan munosabatda bo'lishi, ularning yo'qolishiga yoki buzilishiga yo'l qo'ymasligi, zarar yetkazilgan taqdirda esa belgilangan tartibda uning o'rnnini qoplashi;

axborot-kutubxona muassasalari ishining sifatini pasaytirishga qaratilgan xatti-harakatlar qilmasligi shart.

Foydalanuvchilar zimmasida qonun hujjalariiga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

21-modda. Jismoniy imkoniyatlari cheklangan foydalanuvchilarga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatish

Jismoniy imkoniyatlari cheklangan foydalanuvchilarga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatish axborot-kutubxona muassasalarida maxsus texnika vositalaridan foydalangan holda axborot yozilgan maxsus jismlarda axborot-kutubxona resurslarini taqdim etish orqali amalga oshiriladi.

6-bob. Axborot-kutubxona muassasalarini moliyalashtirish. Axborot-kutubxona muassasalarining birlashmaları. Xalqaro hamkorlik

22-modda. Axborot-kutubxona muassasalarini moliyalashtirish

Axborot-kutubxona muassasalarini moliyalashtirish quyidagilar hisobidan amalga oshiriladi:

O'zbekiston Respublikasining Davlat budgeti mablag'lari;

muassislarining mablag'lari;

pulli xizmatlar ko'rsatishdan olinadigan mablag'lar;

qonun hujjalariida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

23-modda. Axborot-kutubxona muassasalarining birlashmaları

Axborot-kutubxona muassasalari axborot-kutubxona faoliyatini muvofiqlashtirish, shuningdek umumiyl manfaatlarini ifodalash va himoya qilish maqsadida qonun hujjalariida belgilangan tartibda birlashmalar tuzishi mumkin.

Axborot-kutubxona muassasalarining birlashmaları:

axborot-kutubxona faoliyatini rivojlantirishga ko'maklashadi;

axborot-kutubxona faoliyati sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi;

axborot-kutubxona faoliyati to'g'risidagi qonun hujjalariini takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlaydi;

axborot-kutubxona muassasalari kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etishda ishtirok etadi.

Axborot-kutubxona muassasalarining birlashmaları qonun hujjalariiga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

24-modda. Axborot-kutubxona faoliyati sohasidagi xalqaro hamkorlik

Axborot-kutubxona faoliyati sohasidagi xalqaro hamkorlik O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalariga muvofiq amalga oshiriladi.

7-bob. Yakunlovchi qoidalar

25-modda. Nizolarni hal etish

Axborot-kutubxona faoliyati sohasida yuzaga keladigan nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

26-modda. Axborot-kutubxona faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik

Axborot-kutubxona faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

27-modda. Qonun hujjatlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirish

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;
davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo'lgan o'z normativ-huquqiy hujjatlarini
qayta ko'rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta'minlasin.

28-modda. Ushbu Qonunning kuchga kirishi

Ushbu Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti
I. KARIMOV
Toshkent sh.,
2011-yil 13-aprel,
O'RQ-280-son

"TASDIQLAYMAN"

shahridagi
Prezident maktabi direktori

(imzo)

(F.I.Sh)

shahridagi Prezident maktabi
Kutubxonachisi lavozimining
malaka tavsiflari

Maktab direktori tomonidan lavozimga tayinlanadi va ozod etiladi.
Maktab direktorining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinnbosariga bo'yusunadi.

LAVOZIM VAZIFALARI:

- Kutubxona umumiy faoliyatiga rahbarlik qiladi;
- kutubxonaga yuklatilgan vazifa va kasbiy majburiyatlarni bajaradi, uning ish faoliyatini samarali tashkil etadi hamda ijro intizomiga rioya qiladi;
- kutubxonaning yillik va istiqbol ish rejalarini shakllantiradi, ularni o'z vaqtida sifatli bajarilishini ta'minlaydi;
- Yuqori tashkilot tomonidan maktab kutubxona jamg'armasiga ajratilgan darsliklar, o'quv va metodik qo'llanmalar, ko'rgazmali qurollar hamda badiiy adabiyotlarni qabul qilib olish va ularni fanlar hamda sinflar bo'yicha saralash.
- O'quvchilarga tegishli kitoblarni berish.
- Har bir sinfga topshirilgan yoki tarqatilgan va qaytarib olingan kitoblarni hisob-kitob jurnalini yuritish.
- Maktabda darsliklar saqlanishini nazorat qilish.
- Maktab ta'tili mobaynida kitoblarni saqlash va ularni inventarizatsiyadan o'tkazish.
- Dasliklar zahirasini tiklashni ta'minlash bo'yicha tegishli ishlar olib borish.
- Kelgusi o'quv yili uchun darsliklar va o'quv qo'llanmalarga bo'lgan ehtiyojini tahlil qilib, buyurtmani maktab o'qituvchilari kengashida tasdiqlatish.
- kutubxonada o'quv seminar-treninglar, konferentsiyalar va turli ijodiy tadbirdilar tashkil etadi;
- kutubxonaning axborot izlash tizimlarini yaratish ishlaridagi innovatsion jarayonlarni bibliografik, axborot, metodik, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga joriy etilishini amalga oshiradi;
- kutubxona multiga ehtiyyotkorona munosabatda bo'lishni ta'minlaydi;
- jamoada sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirishda, ichki mehnat tartibi qoidalarini o'rnatishda faol ishtirok etadi;
- vakolati doirasida jismoniy va yuridik shaxslarning yozma va og'zaki murojaatlari, ariza va shikoyatlarini ko'rib chiqadi;
- kutubxonaning moddiy-teknika bazasini mustahkamlashga oid chora-tadbirlarni amalga oshiradi, o'quv jihozlari, asbob-uskunalar va boshqa ta'lim vositalarining saqlanishini hamda ulardan samarali foydalanishni ta'minlaydi;
- o'qituvchilar va o'quvchilarni darsliklar, o'quv qo'llanmalar, metodik materiallar, videomateriallar, audiovizual va obunaga bo'lgan extiyojni aniqlaydi, istiqbol rejalar tuzadi, nashr qilish va pedagog xodimlarni xabardor qilish ishlarini tashkil etadi;
- kutubxonaning foydalanuvchilariga kutubxona resurslari xizmatini ko'rsatadi hamda uning bosma va elektron fondini shakllantiradi;
- kutubxonada hisob-moliya hujjatlari (inventar daftari, ish kundaligi, yo'qotilgan kitoblar o'rniga qabul qilingan kitoblarni hisobga olish daftari, kelib tushgan va hisobdan chiqarilgan hujjatlar yuzasidan dalolatnama, fondni inventarlashtirish va tekshirish ishlarining o'tkazilganligi haqidagi dalolatnomalar, ma'lumotnomalar, davriy nashrlarning qaydlov kartotekasi)ni yuritadi;
- sanitariya-gigiena talablariga, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qiladi.

BILISHI LOZIM

- a) davlatimizning ta'lrim tizimiga oid va bolalar huquqlarini tartibga soluvchi hamda kutubxona faoliyatini takomillashtirishga tegishli amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarini;
- b) davlat ta'lrim standartlari, mutaxassisligi bo'yicha yurtimizda va jahon amaliyotida bo'layotgan yangiliklarni;
- v) kutubxona nazariyasi va amaliyotini, metodik ishlarni tashkil etish va samaradorligini oshirish usullarini;
- g) yurtimiz va xorij davlatlar ilm-fanining bibliografiya va axborot sohasidagi yutuqlari hamda axborot-kutubxona jarayonlari texnologiyasini;
- d) jamoada sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirish, ahillik-inoqlikni mustahkamlash bo'yicha faoliyat yuritishni;
- e) sanitariya-gigiena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalarini.

MALAKA TALABLARI

- a) o'z yo'nalishi bo'yicha kamida bakalavr darajasidagi oliy ma'lumotli;
- b) xorijiy tillardan birining boshlang'ich bosqichini va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni bilishi;
- v) amaliy ish staji talab etilmaydi.

Tanishdim: _____
(imzo)

Kutubxonachi _____
(F.I.Sh)



Elektron shaklini
yuklab olish

KUTUBXONANING ISHINI REJALASHTIRISH VA HISOBOT

Kutubxonaning ish rejasi – faoliyat dasturi vaqtning ma'lum bir davri uchun aniq vazifalarni bajarishga safarbar qilish vositasi, mehnat resurslaridan, ajratilgan pul mablag'i laridan unumli foydalanish vositasidir.

Ish rejasi mazmun, hajm, ketma- ketlik, ishning bajarilish muddati va bajaruvchilarni aniqlaydi.

Rejalar – perspektiv va joriy bo'lishi mumkin.

Perspektiv reja – kutubxona rivojlanishining uzoq yillar davomidagi asosiy ko'rsatkichlarini ifodalaydi.

Yillik reja – ma'lum bir sxema asosida tuziladigan, asosiy va barcha kutubxonalar uchun majburiydir. Nazorat ko'rsatkichlari, bajarish muddati va mas'ullar ko'rsatilgan matnli qismni o'z ichiga oladi.

Chorak ish rejasi – yillik reja asosida tuziladi, tadbirlar mavzusini aniqlaydi, ijtimoiy hayotning so'nggi voqyealari aks ettirilgan yangi mavzular kiritiladi.

Chorak ish rejasi asosida ma'lum muddat davomida (oy, o'n kunlik, hafta) kutubxonaning barcha faoliyatini aks ettiruvchi kutubxonaning **ishchi rejasi** tuziladi.

Bundan tashqari, mamlakatning siyosiy va ijtimoiy hayotiga oid muhim voqyealar bo'yicha ham reja tuzish mumkin.

Hisobot – ma'lum vaqt davomidagi ishlarning natijalari bo'yicha yuqori tashkilotlarga, davlat statistika organlariga, shuningdek kitobxonlar jamoatchiligiga taqdim etiladigan ma'lumotlar jamlamasi. Kutubxonalar ikki xilda hisobot tayyorlaydilar: raqamli va axborot.

Yillik raqamli hisobot – kutubxona faoliyatining hisobiga oid ma'lumotlar asosida to'ldiriladi.

Axborot hisoboti – ma'lum sxema asosida to'ldiriladi, raqamli ko'rsatkichlar tahlili va kutubxona faoliyatining yil davomidagi asosiy yo'naliishlari, ishdagi kamchiliklar tahlili va ularni bartaraf etishni jamlaydi.

Chorak hisoboti – ma'lum sxema asosida to'ldiriladi, chorak oxirida kelgusi oyning 5 kuniga qadar raxbaryatga taqdim etiladi.

Chorak hisobotida kutubxona faoliyatining umumiyligi ko'rsatkichlari: kitobxonlar soni, qatnov, kitob berilishi rejaga nisbatan, kutubxona tarmoqlari, ommaviy tadbirlar, qiziquvchilar klublarining soni va nomlari, bajarilgan xizmatlar ko'rsatiladi. Matnli qismida kutubxona faoliyatining chorak davomidagi faoliyati yoritiladi.

Kutubxona faoliyatiga oid **bir oylik axborot** kelgusi oyning 5 kuniga qadar taqdim etiladi. Axborotda kitobxonlar soni, qatnov, kitob berilishining o'tgan yilga nisbati, o'tkazilgan tadbirlar nomi ko'rsatiladi.

Bundan tashqari, yuqori tashkilot tomonidan ma'lumot tayyorlash maqsadida ma'lum bir mavzu bo'yicha kutubxona faoliyatiga oid axborot so'ralishi mumkin.

Kitobxonlar va aholi oldida hisobot. Kutubxonalar o'z faoliyatlari to'g'risida kitobxonlari oldida hisobot berishlari shart. Hisobot kitobxonlar konferensiysi, kitobxonlar yig'ilishi, kutubxonaning jamoat kengashi, kutubxona faoliyatining matbuotda yoritilishi shakllarida o'tkazilishi mumkin.



Elektron shaklini
yuklab olish

"KELISHILDI"
"O'zarxiv" agentligining tuman
(shahar) bo'limi mudiri

(imzo)

(F.I.Sh)

"TASDIQLAYMAN"
shahridagi
Prezident maktabi direktori

(imzo)

(F.I.Sh)

Maktab kutubxonasining nomenklaturasi

Hujjatlar indeksi	Hujjatlarning nomi	Saqlash muddati
00-01	Kutubxona fondini qabul qilish va topshirish to'g'risidagi dalolatnoma. Kutubxona fondlarini inventarizatsiya qilish aklari	Doimiy
00-02	Kutubxona ishini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy baza (Qonunlar. Nizomlar. Yo'riqnomalar. Yuqori tashkilotlarning buyruqlari, Agentlik tomonidan tayyorlangan normativ hujjatlar yo'riqnomalari). 1. Xalqaro darajadagi hujjatlar 2. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi 3. Agentlik tomonidan tayyorlangan normativ hujjatlar.	Doimiy
00-03	Mahalliy huquqiy-me'yoriy hujjatlar: 1. Kutubxona to'g'risidagi nizom 2. Darsliklar, o'quv qo'llanmalar, shuningdek o'quv materiallari, darsliklardan foydalanish tartibi 3. Ta'lim fondi xavfsizligi to'g'risidagi nizom 4. Sovg'a sifatida qabul qilingan o'quv adabiyotlari to'g'risidagi nizom 5. Kutubxonadan foydalanish qoidalari 6. Kutubxonachining ish tavsifi 7. Kutubxona pasporti	Doimiy
00-04	Ish reja va hisobot hujjatlari. Kutubxona statistikasi; 1. Maktab kutubxonasining ish rejasi 2. Maktab kutubxonasi ishining tahlili va hisoboti 3. Kutubxonaning ishslash rejimi 4. Sinflar bo'yicha o'quv adabiyotlari bilan ta'minlanganligi Darsliklar bilan ta'minlash asosları	3 yil
00-05	Hisobot va nazorat hujjatlari; 1. Xatlovdan (Inventarizatsiya) o'tkazish kitobi 2. Xatlov (Inventarizatsiya) kitobiga kiritilishi shart bo'lmagan nashrlar reestri. 3. Yo'qotilganlar o'rninga o'quvchilardan qabul qilingan kitoblar jurnali 4. So'rovlar jurnali 5. Xayriyaga qabul qilingan kitoblar reestri (sovg'a) 6. Kutubxona fondi 7. Kutubxona darsliklari fondi 8. Darsliklarni hisobga olish uchun kartoteka 9. Darsliklarni ro'yxitga olish kartalarini ro'yxitga olish va tasarruf qilish daftarchasi	Doimiy Doimiy 3 yil 5 yil Doimiy Doimiy Doimiy Doimiy 3 yil
